




## 2022- yilning yanvar oyi uchun Xorazm viloyatida qurilish ishlari



Joriy yilning yanvar oyida Xorazm viloyatida jami **264,7** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2021- yilning yanvar oyiga nisbatan **100,2 %** ni tashkil etdi.

### Qurilish ishlari hajmining tarkibi, %

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.



Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo'linadi.

**Ma'lumot uchun:** qurilish ishlari hajmi bu – o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.

Jori yilning yanvar oyida jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **3,0** mlrd. soʻmni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2021- yilning yanvar oyiga nisbatan **48,2 %** ga kam bajarilgan boʻlib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2021- yilning mos davridagi koʻrsatkich darajasidan **1,2 %** punktga kamaydi va **1,1 %** ni tashkil etdi.



## Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi, % da



OʻSISH SURʻATI **48,2 %**

2021- yil  
yanvar oyi


2022- yil  
yanvar oyi

**Maʼlumot uchun:** yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng koʻp ulushi Urganch shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **28,7 %** yoki 2021- yilning yanvar oyiga nisbatan **19,8 %**), Urganch tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **45,6 %** yoki oʻtgan yilning mos davriga nisbatan **383,2 %**) va Xiva tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **24,7 %**, yoki oʻtgan yilning mos davriga nisbatan **19,7 m. %**) ga toʻgʻri keldi.



### Qurilish ishlarining umumiy hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2022- yilning yanvar oyida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **71,4 %** to'g'ri kelib, 2021- yilning yanvar oyi ko'rsatkichiga nisbatan **0,6 %** punktga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2021- yilning mos davriga nisbatan **100,2 %** ni tashkil etgan holda **188,9** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.



Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **27,5 %** ni tashkil etdi yoki **72,8** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2021- yilning yanvar oyiga nisbatan o'sish **104,6 %** ni tashkil etdi.

**Qurilish ishlarining umumiy hajmida  
norasmiy sektor**

*o'sish sur'ati, % da*


*ulushi, % da*



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **18,3** mlrd. so'mlik, nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **246,4** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **6,9** % va **93,1** % ni tashkil etdi.

**Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar  
tomonidan bajarilgan qurilish ishlari**

*ulushi, % da*





**2022- yilning yanvar oyida  
hududlar kesimida mulkchilik shakllari  
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari**

	Qurilish ishlari hajmi, mlrd. so'm	Davlat mulki		Nodavlat mulk	
		mlrd. so'm	ulushi % da	mlrd. so'm	ulushi % da
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>264,7</b>	<b>18,3</b>	<b>6,9</b>	<b>246,4</b>	<b>93,1</b>
<b>Urganch sh.</b>	57,0	5,5	9,6	51,5	90,4
<b>Xiva sh.</b>	18,3	1,4	7,7	16,9	92,3
<b>tumanlar:</b>					
<b>Bog'ot</b>	17,8	1,2	6,7	16,6	93,3
<b>Gurlan</b>	15,0	0	0	15,0	100,0
<b>Qo'shko'pir</b>	16,9	1,1	6,5	15,8	93,5
<b>Urganch</b>	27,2	2,0	7,4	25,2	92,6
<b>Hazorasp</b>	14,8	1,4	9,5	13,4	90,5
<b>Tuproqqal'a</b>	9,2	1,2	13,0	8,0	87,0
<b>Xonqa</b>	17,9	0,9	5,0	17,0	95,0
<b>Xiva</b>	30,5	0	0	30,5	100,0
<b>Shovot</b>	16,1	1,5	9,3	14,6	90,7
<b>Yangiariq</b>	12,5	1,0	8,0	11,5	92,0
<b>Yangibozor</b>	11,5	1,1	9,6	10,4	90,4

Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish,  
texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi  
2022- yil yanvar oyi

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 74,4 % yoki **196,9** mlrd. soʻm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

74,4 %

Yirik qurilish tashkilotlari boʻyicha yangi qurilish hisobidan **3,0** mlrd. soʻmlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 1,5 % ni tashkil etdi.

1,5 %

Kichik korxonalar va mikrofirmalar boʻyicha yangi qurilish hisobidan **128,1** mlrd. soʻmlik ishlar bajarildi yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 65,1 % ni tashkil etdi.

65,1 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **65,8** mlrd. soʻmni yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 33,4 % ni tashkil etdi.

33,4 %




**2022- yilning yanvar oyida  
hududlar kesimidagi qurilish ishlari**

	<b>Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)</b>	<b>O'sish sur'ati, % da</b>	<b>Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya (mlrd. so'm)</b>
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>264,7</b>	<b>100,2</b>	<b>196,9</b>
<b>Urganch sh.</b>	57,0	100,1	46,6
<b>Xiva sh.</b>	18,3	97,8	14,0
<b>tumanlar:</b>			
<b>Bog'ot</b>	17,8	100,2	10,5
<b>Gurlan</b>	15,0	100,8	11,7
<b>Qo'shko'pir</b>	16,9	100,3	8,0
<b>Urganch</b>	27,2	101,1	18,6
<b>Hazorasp</b>	14,8	100,8	10,4
<b>Tuproqqal'a</b>	9,2	97,1	6,4
<b>Xonqa</b>	17,9	100,8	12,2
<b>Xiva</b>	30,5	100,9	24,8
<b>Shovot</b>	16,1	100,3	14,5
<b>Yangiariq</b>	12,5	100,3	9,2
<b>Yangibozor</b>	11,5	100,5	10,0

## Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

ulushi, % da



**Ma'lumot uchun:** Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.





**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar  
kesimida qurilish ishlari  
2022- yil yanvar oyida**

*mld.s'om*

	Qurilish ishlari hajmi	shu jumladan:		
		Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashti- rilgan qurilish ishlari
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>264,7</b>	<b>189,1</b>	<b>52,2</b>	<b>23,4</b>
<b>Urganch sh.</b>	57,0	34,2	17,0	5,8
<b>Xiva sh.</b>	18,3	10,9	5,6	1,8
<b>tumanlar:</b>				
<b>Bog'ot</b>	17,8	14,0	2,4	1,4
<b>Gurlan</b>	15,0	11,8	0,8	2,4
<b>Qo'shko'pir</b>	16,9	12,9	3,4	0,6
<b>Urganch</b>	27,2	16,7	6,3	4,2
<b>Hazorasp</b>	14,8	13,2	1,4	0,2
<b>Tuproqqal'a</b>	9,2	4,4	3,9	0,9
<b>Xonqa</b>	17,9	13,9	2,5	1,5
<b>Xiva</b>	30,5	25,7	3,7	1,1
<b>Shovot</b>	16,1	11,7	1,7	2,7
<b>Yangiariq</b>	12,5	11,2	1,3	0
<b>Yangibozor</b>	11,5	8,5	2,2	0,8

2022- yilning yanvar oyida  
hududlar kesimidagi qurilish ishlari

mlrd. so'm

Urganch sh.

57,0



Xiva

30,5



Urganch

27,2



Xiva sh.

18,3



**Ma'lumot uchun:** qurilish ishlarining eng yuqori hajm ko'rsatkichi Urganch shahri (57,0 mlrd. so'm), Xiva (30,5 mlrd. so'm), Urganch (27,2 mlrd. so'm) tumani hamda Xiva shahriga (18,3 mlrd. so'm) to'g'ri keladi.





## **XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI**

**Xorazm viloyati  
statistika boshqarmasi**

**Investitsiya va qurilish statistikasi  
bo'limi**

**Aloqa telefoni: (62)224-65-22**